

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi**

**Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili  
bakalavriat ta'lim yo'naliishing davlat ta'lim talablari**

**Qo'qon-2021 yil**

## **SO'Z BOSHI**

### **1. IShLAB ChIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Qo'qon universiteti;
- Qo'qon shahar Xalq ta'lifi bo'limi.

### **2. TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi yo'naliishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvoofiqlashtiruvchi kengashning 2021 yil «26» federal dagi 1 - sonli yig'ilishida ma'qullangan.

### **3. JORIY ETILGAN:**

Qo'qon universiteti.

Mazkur davlat ta'lif talablarini O'zbekiston Respublikasi hududida rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
1. Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili bakalavriat ta'lim yo'naliشining umumiy tasnifi.....	4
1.1. <i>Qo'llanish sohasi</i> .....	4
1.2. <i>Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili ta'lim Yo'naliشhi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatlarining tasnifi</i> .....	4
2. <i>Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili ta'lim yo'naliشhi bo'yicha bakalavrлarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar</i> .....	6
2.1. Bakalavrлarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy Talablar.....	6
2.2. <i>Xorijiy til va adabiyot ingliz tili ta'lim yo'naliشhi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan malaka talablari</i> .....	7
3. <i>Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili bakalavriat ta'lim yo'naliشhi o'quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar</i> 9	
3.1. O'quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy Talablar.....	9
3.2. <i>Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili bakalavriat ta'lim yo'naliشhi o'quv rejasiдagi yuklama hajmi</i> .....	11

## **1. Horijiy til va adabiyot: ingliz tili bakalavriat ta'lim yo'nališining umumiyl tavsifi**

**Horijiy til va dabiyoti: ingliz tili ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular tayyorlovchi oliy ta'limning kredit tizimi (ECTS) asosida ta'lim berishga yo'naltirilgan o'quv reja va fan dasturi (sillabus) asosida amalga oshiriladi, uning nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, belgilangan miqdordagi kreditni olgan (240 kredit, GPA 2 va undan yuqori) shaxsga «bakalavr» malakasi (darajasi) hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi.**

**O'quv reja va fan dasturi (sillabus)da ko'zda tutilgan o'quv shakli, me'yoriy muddati va unga muvofiq mos malaka darajasi 1- jadvalda keltirilgan**

1- jadval

**O'quv reja va fan dasturi (sillabus)ning muddati va bitiruvchilarining malaka(daraja)si**

O'quv reja va fan dasturi (sillabus)ining nomi	Malaka (daraja)	O'quv reja va fan dasturi (sillabus)ni o'zlashtirishning me'yoriy muddati
Bakalavriat ta'lim yo'nališining o'quv rejasi va fan dasturi (sillabus) lari	Bakalavr	4 yil (240 kredit, GPA 2 va undan yuqori)

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

**1.1.1.** Oliy ta'limning ushbu davlat ta'lim talabi Horijiy til va dabiyoti: ingliz tili ta'lim yo'nališi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrular tayyorlash o'quv reja va fan dasturi (sillabus)larining o'zlashtirilishini amalga oshirishda Qo'qon universiteti nodavlat oliy ta'lim muassasasi (keyingi o'rnlarda - Qo'qon universiteti) uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2.** Qo'qon universiteti Horijiy til va dabiyoti: ingliz tili bakalavriat ta'lim yo'nališi bo'yicha kadrlar tayyorlashda mazkur davlat ta'lim talabi asosida o'quv reja va fan dasturi (sillabus)larni ishlab chiqish va nashr etish huquqiga ega.**1.1.3.** Давлат таълим талабининг асосий фойдаланувчилари:

– mazkur ta'lim yo'nališ bo'yicha fan, texnik va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturi (sillabus)larini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul Qo'qon universiteti ning professor - o'qituvchilari; таълим йўналишининг ўкув режа ва фан дастури (силлабус)ларини ўзлаштириш бўйича ўкув хамда тарбия фаолиятини самарали амалга оширувчи барча ходимлари ва талabalari;

– o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan Qo'qon universiteti ning boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, akademik departament boshlig'i, dekan va kafedra mudiri); битирувчilarning тайёргарлик даражасини баҳолашни амалга оширувчи истеъmolchi корхона ва ташkilotlar;

- Qo'qon universiteti ni moliyalashtirishni ta'minlovchi ta'sischilar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;
- ta'lim yo'nališini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan talabalar va boshqa manfaatdorlar.

### **1.2. Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tasnifi**

#### **1.2.1. Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:**

Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili bakalavriat ta'lim yo'nališi – umumiyl o'rta, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, umumiyl o'rta, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi

tizimining tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, ommaviy axborot vositalari, umumiy o'rta, o'rta-maxsus kasbiy ta'larning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Yo'naliш bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrлarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Qo'shimcha va o'zgarishlar muayyan ta'lim yo'naliшlarining davlat talablari va o'quv rejalarini yangilangan holda ishlab chiqishda hisobga olinadi.

### **1.2.2. Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va mакtabdan tashqari ta'lim muassasalari, o'quvchilar, o'quv-tarbiya jarayoni, o'qitishning pedagogik texnologiyalari, chet til o'qitish metodikasi, asosiy o'rganilayotgan tilning nazariy va amaliy asoslari, lug'at boyligi, mazkur tillarda ilmiy va badiiy adabiyotlarni o'qish, og'zaki nutq malakasini orttirish; asosiy til sifatida o'rganilayotgan xalq adabiyoti, uning tarixi va hozirgi holati, nazariy masalalari; adabiy aloqalar, matn tarjimasi, dars berish mahorati, nutq madaniyati tamoyillari kabilardan iborat. Chet tili ta'limi jarayonlari; ta'lim tizimi o'quv-tarbiya jarayoni; o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari; chet tilini o'qitish metodikasi; roman-german tilshunosligi va adabiyotshunosligi; tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasidagi muammolar va ularning yechimlari; adabiyot nazariysi, adabiyotshunoslik tarixi, xalq og'zaki ijodi, ifodali o'qish, nutq madaniyati va uslubiyati; mакtabdan tashqari ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayoni; ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari sohasi; muharrirlik va musahhihlik; chet tili ixtisosligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

Yo'naliш bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrлarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Qo'shimcha va o'zgarishlar muayyan ta'lim yo'naliшlarining malaka talablari va o'quv rejalarini yangilangan holda ishlab chiqishda hisobga olinadi.

### **Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:**

- umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida xorijiy til va adabiyotiga oid fanlardan o'rnatilgan tartibda dars berish;
- umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlardan tashqari muassasalarda tarbiyachi bo'lib ishlash;
- ta'lim tizimida kabinet mudiri va unga tenglashtirilgan lavozimlarda ishlash;
- o'quv-metodik: mos ta'lim yo'naliшlar bo'yicha ta'limni amalgalash oshiruvchi vazirliliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash;
- gumanitar fanlar yo'naliшidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash;
- arxivlarda, axborot-resurs markazlarida, nashriyotlarda, ommaviy-axborot muassasalarida, qo'lyozma fondlarida, turli tadbirkorlik sub'ektlarida, nodavlat notijorat va jamoat tashkilotlarida hamda boshqa muassasalarda ishlash;
- mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlarida ishlash;
- ishlab chiqarish sohasida kompyuter texnologiyalari, kasbiy ta'lim pedagogikasi va texnologiyasi, o'qitishning didaktik vositalari, ta'larning elektron vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

### **1.2.3. Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili ta'lism yo'naliishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

umumiyo'rta, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ixtisosligiga mos ta'lim muassasalarida pedagogik; ma'naviy-ma'rifiy; o'quv-metodik; ilmiy-tadqiqot; tarjimonlik; ma'muriy boshqaruv.

Yo'naliish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Qo'shimcha va o'zgarishlar muayyan ta'lim yo'nalihsilarining malaka talablari va o'quv rejalarini yangilangan holda ishlab chiqishda hisobga olinadi.

Ta'lim yo'naliishi bo'yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

### **1.2.4. Ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy moslashuv imkoniyatlari**

Bitiruvchilar kasbiy qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin oliy, umumiyo'rta ta'lim, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan turdosh (sohaga mos) fanlarni o'qitish imkoniyatiga ega bo'ladi.

### **1.2.5. Ta'limni davom ettirish imkoniyatlari**

Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili ta'lim yo'naliishini tugatgan bakalavrlar Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan turdosh magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ikki yildan kam bo'limgan muddatda magistraturada o'qishni davom ettirishi mumkin.

Shuningdek, o'rnatilgan tartibda mustaqil tadqiqotchilik asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi mumkin.

## **2. Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar**

### **2.1. Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar:**

#### **Bakalavr:**

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;
- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjalalar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda xayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo'naliishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'qquv va ko'nikmalariga ega bo'lisi lozim.

**Bakalavr:**

- ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha maistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanadilar.

**2.2. Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan malaka talablari**

**Umumi o'rta, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ixtisosligiga mos ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatda:**

- umumi o'rta, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ixtisosligiga mos ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitish;
- umumi o'rta, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ixtisosligiga mos ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noa'nnaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'qitishning didaktik vositalaridan foydalanish;
- mustaqil ta'lim va ilmiy-ijodiy tadqiqot ishlari natijasida o'qitilayotgan fan bo'yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish qobiliyatlariga ega bo'lisi lozim.

**ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda:**

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkil etish metodikasini egallah, o'quvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish;
- o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilish;
- globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda milliy til va adabiyotning o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;
- mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha yakka tartibda suhbat o'tkazish;

- milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

**o'quv-metodik faoliyatida:**

- umumiy o'rta, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'llimi tizimining ixtisosligiga mos ta'llim muassasalari va uning tarmoq boshqarmalarida metodist bo'lib ishlay olish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

**ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- til, adabiyot va ta'llim texnologiyalari sohasida ilmiy tekshirish institutlarida kichik ilmiy xodim, tadqiqotchi-izlanuvchi, namunaviy metodikalar va boshqalar bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalariga ishlov berish;
- ilmiy-texnikaviy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;
- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy obzorlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy seminarlar, ilmiy-texnikaviy konferentsiyalar ishida ma'ruzachi, muhokamalarda qatnashuvchi va referent sifatida ishtirot etish;
- ilmiy-texnikaviy va sohaga oid jurnallarga maqola va taqrizlar tayyorlash;
- internet trmog'ida eng yangi ilmiy, adabiy va lisoniy yangiliklar, yangi pedagogik texnologiyalar va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorlanganlik sohaga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;
- tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganadi;
- kasbiy faoliyat ob'ekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihibarini o'rganish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashadi;
- ma'lumotlarni jamlaydi, qayta tayyorlaydi, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qiladi;
- gumanitar yo'nalishlar bo'yicha ilmiy tekshirish muassasalarida kichik ilmiy vazifasida ishlash;
- matnlarni nashrga tayyorlash va tahrir qilish, taqrizlar yozish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

**tarjimonlik faoliyatida:**

- maorif, madaniyat, turizm sohalarida; turli davlat muassasalarida, mehmonxona, qo'shma korxonalar, firmalarda ish yurituvchi, referent vazifasida ishlay olish;
- davlat boshqaruvi tizimida faoliyat yurita olish;
- texnik va boshqa tarjima turlarini amalga oshirish; - o'rgangan tillaridan ona tiliga tarjima qilish;
- mehmonxonalarda va sayyoqlik firmalarida menejerlik va ma'muriy xodim sifatida ishlash;
- chet tillarni intensiv shaklda o'rgatish (qisqa kurslar);
- davlat va davlatga qarashli bo'limgan xususiy tashkilotlarda chet tillardan tarjimonlik qilish;
- turli hajm va mazmundagi ish qog'ozlari bilan ishlash;
- badiiy, ilmiy asarlarni chet tilidan ona tiliga tarjima qilish kabi kasbiy faoliyat turlarini amalga oshirish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

**ma'muriy boshqaruvi faoliyatida:**

- til va adabiyotga oid turli tadbir, anjuman va ma'rifiy suhbatlarni tashkillashtirish va boshqarish;
- ARMda axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar monitoringi hamda sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirot etish.
- axborot texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
  - жамоада ижтимоий ва маънавий-маътирифий ишларни ташкил этиш ва бошқариш;
  - фикрлар хар хил бўлган шароитда тўғри қарор қабул қилиш;
  - бажараётган фаолияти бўйича иш режасини тузиш, назорат қилиш ва амалга оширилган ишнинг натижаларини баҳолаш;
  - маориф, маданият, туризм соҳаларида; турли давлат муассасаларида, меҳмонхона, қўшма корхоналар, фирмаларда иш юритувчи, референт вазифасида ишлаш;
  - давлат тизимининг барча бошқарув бўгинларида ишлаш;
  - турли ўкув муассасалари, ташкилотларга раҳбарлик қилиш, таълим ва соҳа билан боғлиқ бошқа ишларни режалаштириш, уларни йўлга қўя билиш;
  - янги технологиялар, таълимнинг замонавий усуллари асосида ўқитишни ташкил қилиш ва уларни бошқариш;
  - таълим ва ўқитиш сифатини бошқариш жараёнларини ишлаб чиқиш ва уларни амалга татбиқ қила олиш;
  - ўкув жараёнларини амалга ошириш учун зарур бўлган ташкилий ишларни режалаштириш;
  - давлат бошқаруви тизимида ташкилот ва органларга раҳбарлик қилиш, жамоа бошқарувини йўлга қўйиш, меҳнат жамоалари ишини ташкил этиш **қобилиятларига эга бўлши лозим**.

### **3. Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturi (sillabus)lari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar**

Xorijiy til va adabiyot bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fanlar dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzlusizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda, ishlab chiqilishi va talabalarning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o'zlashtirishini nazarda tutishi zarur:

- majburiy fanlar;
- tanlov fanlar.

Kasb faoliyati ko'nikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari o'tilishi nazarda tutilishi shart.

O'quv rejalar majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi shart.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejaci va fanlar dasturlarini o'zlashtirishda talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

O'quv rejaga kiritiladigan ixtisoslikka oid fanlarning amaliy mashg'ulotlari va laboratoriya ishlari oliy ta'lim muassasasi hamda bazaviy tashkilotlarda o'tkaziladi.

Nazariya va amaliyot yaxlitligini ta'minlash uchun talabalarning malakaviy amaliyotlari bazaviy tashkilot va muassasalarda o'tkaziladi.

Bakalavriat ta'lif yo'nalishi o'quv rejasiga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

### **3.1. O'quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiyl talablar**

#### **Majbuliy fanlar bloki bo'yicha:**

- qadimgi roman-german tillarining fonetik, gramma tik xususiyatlari, til tarixini o'rganishda mavjud yozma yodgorliklar va alifbo turlari haqida tasavvur hosil qilishi hamda turli davrlarda yaratilgan matnlarni o'qiy olish, tarjima qilish va izohlab berish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- o'rganilayotgan til gramma tikasi va leksikologiyasi bo'yicha asosiy ilmiy-tadqiqot muammolari va kasbiy rivojlanish istiqbollari, bir-biriga yaqin bo'limlar bilan ularning o'zaro aloqasini tushunishi;
- ixtisoslik fanlari sohalari bo'yicha rivojlanish istiqbollari bilan bog'liq asosiy tushuncha, ob'ektlar, hodisa va jarayonlarni bilish va o'z kasbiy faoliyatini tashkillashtirishning zaruriy ilmiy vositalarini bilishi, o'rganishning umumiyl metodologiyasi va xususiy metodlari haqida tasavvurga ega bo'lishi hamda turli shakldagi matnlarning gramma tik va leksiko-stilistik xususiyatlarini anglashi;
- ixtisoslik fanlarining bakalavr tayyorlash jarayonida tutgan o'rni va salmog'ini bilishi;
- qiyosiy tipologiya fanining asosiy tadqiqot metodlari va tamoyillari, tarjimashunosligining dolzARB nazarini va amaliy masalalarni haqida fikrga ega bo'lishi, chet tilidan ona tiliga va ona tilidan chet tiliga tarjima qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.
- Ixtisoslik fanlarining dasturlarini ishlab chiqishda kadrlar buyurtmachilarining talablari e'tiborga olinadi.
- tilning murakkablik darajasi mos bo'lgan, asl holatda olingan autentik materiallarni o'qish, tinglab tushunish, ularni amaliyotda qo'llay olishi, og'zaki prezentsiyalar orqali o'z fikrlarini imkoniyat darajasida aniq bayon qila olish, tinglab tushunish, so'zlashish, o'qish va yozish ko'nikmalarini uyg'unlashgan holda turli mavzularga doir loyiha ishlarini bajarish orqali rivojlantira olish, tinglab tushunishni osonlashtirish turli strategiyalarni qo'llay olishi;
- Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumevropa kompetentsiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlari
- (CEFR – Common European Framework of Reference) asosida til ko'nikmalarini (o'qib tushunish, tinglab tushunish, gapirish, yozish) rivojlantirib borish;
- badiiy adabiyotlarni o'qish ko'nikmasiga ega bo'lishi va o'qigan adabiyotlaridan olgan taassurotlari bilan o'rtoqlasha olishi, o'qish jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni farqlay olishi va ular yechimini topa olishi;
- eshitgan, ko'rgan va o'qigan mavzusi asosida qisqa insholar (paragraflar) yoza olish ko'nikmalarini rivojlantirishi;
- tegishli bakalavriat ta'lif yo'nalishi bo'yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko'nikmalari va uquvlarini shakllantirishi;
- chet tili o'qitishning zamonaviy metodlarini, jumladan axborot texnologiyalarini qo'llay olishi;

- o'rganilayotgan til stilistikasi sohasidagi mavjud yo'nalishlar, matnlarni stilistik tahlil etishda q'llanadigan metodlar, turli olimlarning stilistika va matn tahlili haqidagi nazariy qarashlari haqida tasavvur hosil qilishi va amaliyatda q'llay olishi;
- tilshunoslik nazariyasи va tarixi to'g'risidagi bilimlarni egallashi, chet tillarni amaliy o'rganishda tilshunoslik bo'yicha nazariy bilimlarni qo'llay olishi, tilshunoslikda mavjud yo'nalishlar va maktablar vakillari, namoyondalarining nuqtai nazarlarini farqlay bilishi;
- tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyotining jahon adabiyotidagi o'rni, taraqqiyoti, namoyondalari, antik va o'yg'onish davri adabiyotini tasavvur qilishi;
- jahon adabiyoti namoyondalarning asarlarini tanqidiy tahlil qila bilish, taqriz yozish, ularning tarjimalarini tahrir qila olishi;
- xorijiy adabiyot vakillari asarlarining tarjimalarini hamda o'zbek adiblari tomonidan yozilgan asarlarning xorijiy tillarga qilingan tarjimalarini tahrir qilish va nashrga tayyorlay olishi lozim;

#### **Tanlov fanlari bo'yicha:**

*Ta'lim yo'nalishi bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda tanlov fanlarining tarkibi va ularning mazmuniga qo'yilgan talablar Qo'qon universiteti Kengashi tomonidan belgilanadi.*

#### **3.2. Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili bakalavriat ta'lif yo'nalishi o'quv rejasidagi yuklama hajmi**

Barcha turdagи auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 36 soat qilib belgilanadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 30 soatgacha qilib belgilanishi mumkin.

O'qishning me'yoriy muddati to'rt yil bo'lgani holda o'quv jarayoni o'rtacha 140-150 hafta davom etishi zarur.

## **Bibliografik ma'lumotlar**

UDK: 002: 651. 1/7

Guruhi T 55

OKS 01.040.01

#### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, modulъ, ta'lif yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (sillabus), davlat ta'lif standarti, o'quv reja, kompetentsiya, modulъ, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat turi, amaliyat, amaliyat ob'ekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi

## Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'nalishi bo'yicha o'quv rejaning tuzilishi

Nr	Nr	FAN NOMI	Fan nomi, ingliz tilida	Kod	Kredit	Sont	Auditoriya	Mustaqill ta'lim
1-semestr								
1	1	Amaliy ingliz tili grammatikasi	Practical english grammar	EngGram M 1006	6	180	72	108
2	2	Amaliy ingliz tili fonetikasi	Practical english phonetics	EngPhon M 1006	6	180	72	108
3	3	Listening and Speaking 1	Listening and Speaking 1	LisSpe M 1006	6	180	72	108
4	4	Reading and Writing 1	Reading and Writing 1	ReaWrt M 1006	6	180	72	108
5	5	Til aspektlarini o'rgatish amaliyoti*	Basics of education	BasEdu M 1003	3	90	36	54
6	6	Rus tili	Russian Language	RusLang E 1003	3	90	36	54
		JAMI			30	900	360	540
2-semestr								
7	1	Listening and Speaking 2*	Listening and Speaking 2	LisSpe M 1006	6	180	72	108
8	2	Reading and Writing 2*	Reading and Writing 2	ReaWrt M 1006	6	180	72	108
9	3	Til aspektlarini o'rgatish amaliyoti*	Language Aspects	LangAsp E 1006	6	180	72	108
10	4	Axborot texnologiyalardan foydalanish	Using Information Technology	InfoTech M 1006	6	180	72	108
11	5	Home reading**	Home reading	HomRed E 1003	3	90	36	54
12	6	Rus tili	Russian Language	RusLang E 1003	3	90	36	54
		Tanlov fan						
1	1	Essay writing**	Essay writing	EssWrit E 1003	3	90	36	54
	2	19-asr Amerika va Britanya adabiyoti*	19 <sup>th</sup> century American and British Literature	AmeBriLit E 1006	6	180	72	108
		JAMI			30	900	360	540
3-semestr								
13	1	Public speaking and leadership*	Publisc speaking and leadership	PubSpeak E 2006	6	180	72	108
14	2	Reading and Writing 3	Reading and Writing 3	ReaWrt M 1006	6	180	72	108
15	3	Listening and speaking 3	Listening and speaking 3	LisSpe M 1006	6	180	72	108
16	4	Umumiy pedagogika*	Pedagogy	Pedag E 2006	6	180	72	108
17	5	Psixiologiya	Psychology	Psy E 2003	3	90	36	54
18	6	Ikkinchil til (nemis tili)**	Second language (German)	SeclanG E 2003	3	90	36	54
		Tanlov fan						
1	1	Business communication*	Business communication	BusCom 2003	6	180	72	180
2	2	Grammar for CEFR*	Grammar for CEFR	Gram.Cefr	6	180	72	180
3	3	Ikkinchil til (Fransuz tili)**	French	SeclanF E2003	3	90	36	54
6	6	Tanqidiy fikrlash**	Critical thinking	CritTh 2006	3	90	36	54
		JAMI			30	900	360	540
4-semestr								
19	1	Reading and Writing 4*	Reading and Writing 4	ReaWrt M 1006	6	180	72	108
20	2	Listening and Speaking 4	Listening and Speaking 4	LisSpe M 1006	6	180	36	54
21	3	Tarjumashunoslik*	Translation Studies	TranslStud E 2006	6	180	72	108
22	4	Ingliz va Amerika adabiyoti	English and American literature	EngAmeLit M 2006	6	180	72	108
23	5	Inson resurslarini boshqarish**	Human resources management	HRM E 2003	3	90	36	54
24	6	Ikkinchil til (nemis tili)**	Second language (German)	SeclanG E 2003	3	90	36	54
		Tanlov fan						
1	1	Psixodiagnostika*	Psychodiagnostics	PsyD 2006	6	180	72	108
2	2	Synchronous translation*	Sychromic translation	AmerLiter 2006	6	180	72	108
3	3	Tanqidiy fikrlash*	Critical thinking	CritTh 2006	6	180	72	108
4	4	Marketing*	Marketing	Mark E 2006	6	180	72	108
5	5	Ikkinchil til (Fransuz tili)**	French	SeclanF E2003	3	90	36	54
		JAMI			30	900	360	540
5-semestr								
25	1	Xorijiy til sifatida Ingliz tilida test qilish	Testing in English as a foreign language	TesEng M 3006	6	180	72	108
26	2	Nazariy grammatica*	Theoretical grammar	TheorGram E 3006	6	180	72	108
27	3	Ingliz tili o'qitish metodikasi	Methods of teaching English	MethTeach M 3006	6	180	72	108
28	4	Ingliz tili stilistikasi*	English stylistics	EngSty M 3006	6	180	72	108
29	5	Sharq Adabiyoti	Oriental literature	OriLit E 3003	3	90	36	54
30	6	Ikkinchil til (nemis tili)**	Second language (German)	SeclanG E 3003	3	90	36	54
		Tanlov fan						
1	1	Nazariy fonetika*	Theoretical phonetics	TheorPhon E 3006	6	180	72	108
2	2	Developing communication skills*	Developing communication skills	DevCom E 3006	6	180	72	108
3	3	Eтика Esteretika*	Ethics and esthetics	EthEst E3006	6	180	72	108
4	4	Ikkinchil til (Fransuz tili)**	French	SeclanF E2003	3	90	36	54
		JAMI			30	900	360	540
6-semestr								
31	1	Maktabgacha va boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasi	Methods of teaching English in preschool and primary school	PrePrim M 3006	6	180	72	108
32	2	Ingliz tili tarxi	History of the English language	HistEng M 3006	6	180	72	108
33	3	Elektron ta'lim resurslari*	Making e-educational resources	EduRes E 3006	6	180	72	108
34	4	Qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasi	Comparative typology and translation theory	ComTyp M 3006	6	180	72	108
35	5	Cross culture**	Cross culture	CrosCul E 3003	3	90	36	54
36	6	Ikkinchil til (nemis tili)**	Second language (German)	Seclang E 3003	3	90	36	54

		Tanlov fan					
1	Philosophy**	Philosophy	Philo E 3003	3	90	36	54
2	Xorijiy OAV tili*	Foreign media language	ForMedLang E3006	6	180	72	108
3	Mehmonhona va Turizm uchun ingliz tili*	English for Hotel and Tourism	EngHotTour 3006	6	180	72	108
4	Ikkinchchi til (Fransuz tili)**	French	SecLanF E 2003	3	90	36	54
	JAMI			30	900	360	540
7-semestr							
37	1 Tilshunoslik	Linguistics	Linguiст M 4006	6	180	72	108
38	2 Discourse Analysis	Discourse Analysis	DiscuAn M 4006	6	180	72	108
39	3 Curriculum development and course design	Curriculum development	CurDev M 4006	6	180	72	108
40	4 Sotsiologiya*	Sociology	Socio E 4006	6	180	72	108
41	5 Ingliz tilida insho yozish ko'nikmlari (Academic writing)*	Writing an essay in English (Academic writing)	WritEss E 4006	6	180	72	108
	Tanlov fan						
1	Loyihalarni boshqarish*	Project management	ProjMan E 4006	6	180	72	108
2	Biznes etikasi*	Business ethics	BusEth E 1006	6	180	72	108
	JAMI			30	900	360	540
8-semestr							
42	1 Leksikologiya	Lexicology	Lexic M 40075	7,5	225	90	135
43	2 Sotsiolingvistika	Sociolinguistics	SocioLing M 40075	7,5	225	90	135
44	5 Amaliyot	Internship	Intern M 40075	7,5	225	90	135
45	4 Final Project	Final Project	FinProj M 40075	7,5	225	90	135
	JAMI			30	900	360	540
	JAMI:			240	7200	2880	4320


Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari xamda kadrlar iste'molchilar

ISHLAB CHIQILGAN:

Sh.Mustafakulov

M.O'.

202 « »



Qo'qon shahar

Xalq ta'limi/bo'limi mudiri

D.Alimova

M.O'.



KELISHILGAN

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari  
va ilg'or texnologiyalarini tadbiq etish  
markazi direktori

Z. Xakimov



O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirining  
birinchi erinbosari

U. Sharifxodjayev



**Qo'qon universitetining Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili bakalavriat ta'lif  
yo'nalishi bo'yicha davlat ta'lif talablari va o'quv rejalarini ishlab  
chiquvchilar hamda kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

**Qo'qon shahri**

**202\_\_ yil \_\_\_\_\_**

**Ma'naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi boshlig'i O. Bazarov, Qo'qon shahar Xalq ta'lifi bo'limi mudiri D. Alimova hamda Qo'qon universiteti O'quv ishlari va xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori O.Sheraliev mazkur kelishuv dalolatnomasini quyidagilar haqida tuzdik:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lif to'g'risida" gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 noyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni, **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 aprelb "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lifi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"** gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayatgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3775-sonli, 2019 yil 18 avgustdagagi "Qo'qon universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 683-sonli Qarorlari, hamda Vazirlikning 2017 yil 6 maydagagi 294-sonli, 30 maydagagi 356-sonli, 19 iyundagi 407-sonli buyruqlari ijrosini ta'minlash maqsadida Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarini tatbiq etish markazi, Qo'qon universiteti, turdosh oliy ta'lif muassasalari hamda tegishli soha va tarmoqlar bo'yicha kadr iste'molchilari bilan birgalikda tashkil qilingan ishchi-guruuhlar tomonidan "Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatori"ga muvofiq ishlab chiqilgan ta'lif yo'nalishlarining davlat ta'lif talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqildi.

2. Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili ta'lif yo'nalishining davlat ta'lif talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lif muassasalari – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogik universiteti, O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti, Qo'qon universiteti professor-o'qituvchilari hamda xalq ta'lifi tizimi mutaxassislari o'z fikr-mulohazalari bilan ishtirok etganlar.

3. Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili ta'lif yo'nalishlari kadrlar iste'molchisi - Qo'qon shahar Xalq ta'lifi bo'limi mutaxassislari tomonidan mazmunan o'rganildi hamda ularni maromiga etkazish maqsadida tegishli takliflar bildirildi. Asosiy kadr iste'molchi sifatida Qo'qon shahar va atrof tumanlar Xalq ta'lifi


bo'limi mutaxassislari, Qo'qon shahar Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarning oliy toifali ingliz tili o'qituvchilari va turdosh OTMlari professor-o'qituvchilarining takliflari Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili bakalavriat ta'lim yo'nalishining davlat ta'lim talablari va o'quv rejalarini mukammallashtirishda inobatga olindi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mazkur davlat ta'lim talablari va o'quv rejalarini o'quv jarayonlariga tadbiq etish mumkin, deb hisoblaymiz.

**Qo'qon shahar Xalq ta'limi  
bo'limi mudiri**  
**D. Alimova**



**Qo'qon universiteti O'quv ishlari va  
xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori**  
**O.Sheraliev**



**M.O'.**

**Qo'qon universiteti, turdosh oliy ta'lif muassasalari va kadrlar  
buyurtmachilari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan Xorijiy til va adabiyoti:  
ingliz tili ta'lif yo'naliishi davlat ta'lif talablari va o'quv rejalariga berilgan**

**TAQRIZ**

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lif to'g'risida" gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 noyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 aprel "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lifi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayatgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3775-sonli, 2019 yil 18 avgustdagagi "Qo'qon universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 683-sonli Qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida Qo'qon universiteti tomonidan "Oliy ta'lif yo'naliishlari va mutaxassisliklari Klassifikatori"ga muvofiq ta'lif yo'naliishlari davlat ta'lif talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqildi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarini tatbiq etish markazi, turdosh oliy ta'lif muassasalari hamda tegishli soha va tarmoqlar bo'yicha kadr iste'molchilarini tomonidan kelishildi.


Davlat ta'lif talablarini ishlab chiqishda Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili bakalavriat ta'lif yo'naliishining umumiyo'viy tafsifi, qo'llanish sohasi, kasbiy faoliyatlarining tafsifi, bakalavrlearning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiyo'viy talablar, ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrlearning kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan davlat ta'lif talablari, ta'lif yo'naliishilarining o'quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiyo'viy talablar, o'quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiyo'viy talablar, bakalavriat ta'lif yo'naliishilarini o'quv rejasi yoki yuklama hajmi, ilovalar, bibliografik ma'lumotlar, ishlab chiquvchilar, asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari hamda kadrlar iste'molchilarini bilan kelishilganligini tasdiqllovchi muhr va imzolar o'z ifodasini topgan.


Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili ta'lif yo'naliishlarining davlat ta'lif talablari va o'quv rejalarini o'qitishning kredit tizimiga asoslangan va rivojlangan davlatlar ta'lif tizimidan foydalanilgan. Bunda fanlar soni optimallashtirilgan bo'lib, kadrlar buyurtmachilarining talablari va xorijiy tajribalar inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. Shunga asosan, bir semestrda eng ko'pi bilan 6 tagacha fan belgilangan. Talabalarga ta'lif yo'naliishi bo'yicha davlat namunasidagi diplom olish uchun mezon sifatida Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili ta'lif yo'naliishlari bo'yicha 240 kredit to'plashi va o'rtacha o'zlashtirish darajasi 2 GPA dan kam bo'imasligi belgilab olingan.

Qo'qon universiteti va hamkorlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili ta'lif yo'nalihsining davlat ta'lif talablari va o'quv rejalarini ko'rib chiqildi va ular belgilangan me'yar talablariga javob beradi. Ushbu davlat ta'lif talablari oliy ta'lif yo'nalihsilarini va mutaxassisliklari klassifikatoriga mos ravishda iqtisodiyatda olib borilayatgan islohotlardan kelib chiqib, oliy ta'lif muassasalarida zamonaviy innovatsion texnologiyalar bo'yicha chuqur bilim hamda amaliy ko'nikmalarini tayyorlanadigan kadrlarga etkazishga mo'ljallangan.

Umuman olganda, Qo'qon universiteti tomonidan ishlab chiqilgan Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili ta'lif yo'nalihsining davlat ta'lif talablari va o'quv rejalarini o'rnatilgan tartibda tasdiqlanishi va amaliyatga tatbiq etilishini mumkin, deb hisoblaymiz.

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya  
universiteti Ingliz kafedra dotsenti,  
pedagogika bo'yicha PhD:**



 G.N. Irmuhamedova